

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Texnika fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Putur yetkazmasdan tekshirish o‘lchash vositalarining metrologik ta‘minotini ishlab chiqish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: Ushbu turdagi putur yatkazmasdan tekshirish o‘lchash vositalarining metrologik tekshiruvdan o‘tkazish bo‘yicha qiyoslash va kalibrlash uslubiyotlari ishlab chiqiladi. O‘rganilgan talablar asosida putur yetkazmasdan tekshirish metrologiya laboratoriyasining texnik imkoniyatlari yuqori aniqlikdagi namunaviy o‘lchash vositalari bilan takomillashtiriladi. Tadqiqot jarayonida respublika sanoat tarmoqlarining putur yetkazmasdan tekshirish sohasida keng tarqalgan qalinlik o‘lchagichlar, defektoskoplar va standart namunalari keng tarqalgan turlarini xalqaro standartlar asosida metrologiya tekshiruvi joriy etiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Ishlab chiqilgan areometrlarni kalibrlash qurilmasi va innovatsion kalibrlash uslubiyoti laboratoriya sinovlaridan o‘tkazilib, tajriba-ekspluatatsiya sharoitida aprobatsiya qilinadi. Sinov natijalari “O‘zbekiston milliy metrologiya instituti” DM va uning hududiy filiallarida, shuningdek boshqa metrologik laboratoriyalar faoliyatiga joriy etilib, tijoratlashiriladi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.